

## O'ZBEK TILIDA "MEHNATSEVARLIK" KONSEPTINI IFODALAGAN MAQOLLARNING STRUKTUR VA SEMANTIK TAHLILI

Amirqulova Umida Normo'minovna

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti

Xorijiy til va adabiyoti : ingliz tili ta'lif yo'nalishi II bosqich magistranti

Djabborova Shoira Baltayevna

Termiz Davlat universiteti

Filologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur tezis maqollarning kelib chiqish tarixiga va o'zbek tilida "mehnatsevarlik" konseptini ifodalagan maqollarning tuzilish jihatining tahliliga bag'ishlangan. O'zbek tilidagi mehnatsevarlikni anglatuvchi maqollardan misollar olinib, ularning struktur va semantik xususiyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Maqol, maqol atamasining boshqa nomlari, mehnat, mehnatsevarlik, struktur xususiyat, semantik xususiyat, bir, ikki va uch qismli maqollar.

Mehnatsevarlik o'zbek xalqining yuragida azal-azaldan tomir otgan bebafo qadriyat – ona suti, ota o'giti, buvi-buvalarimizning ibratli ertag-u dostonlari, maqol-u matallari ila qon-qonimizga singib ketgan eng ezgu, eng xayrli fazilatlardan biridir. O'zbekning mehnatsevarligi faqatgina moddiy boylik orttirish uchun emas, balki mehnatdan jismoniy, ruhiy, estetik zavq olish uchundir. Qadim-qadimdan o'zbek elida halol mehnat bilan rizq-nasiba topib, farzandlariga halol luqma yedirgan insonlar barcha davralarda yuksak e'tirof etilib, qadrlanganlar. Har qanday erishilgan zafar-u yutuqlar ortida halol va tinimsiz mehnat, kuchli iroda va qiyinchiliklarga metin bardosh yashirindir. Shu sabab ham mehnatsevarlik o'zbek milliy madaniyatida mavjud bo'lgan asosiy konseptlardan biridir. O'zbek tilida "mehnatsevarlik" konseptini yorituvchi leksik birliklarga maqollar ham kiradi. Jumladan, maqollar tildagi tayyor leksik birlik bo'lib, ular har bir xalq yaratgan madaniyatning bir parchasi hisoblanadi. Maqollar asrlar davomida to'planib, sayqallanib, xalq og'zaki ijodi mulkiga aylangan ilmiy-badiiy tafakkur hosilasi sifatida paydo bo'lgan, xalq orasida og'izdan og'izga o'tib, avloddan avlodga meros sifatida o'tib kelgan milliy-madaniy meros sanaladi. Maqollar xalqning o'tmishi va hozirgi davrida ham qo'llanilib, uning ta'limiyy-tarbiyaviy qimmatbaho xazinasiga aylangan boyligidir.

Maqol atamasi o'zbek tiliga arab tilidagi "qavlun" so'zidan kirib kelgan bo'lib, aytmoq, gapirmoq ma'nolarini anglatadi. Maqol janri barcha insonlar tomonidan bir xilda aytilib, bir xilda tushuniladi. Chunki xalq maqollari shu xalq vakillarining muayyan voqeahodisalar to'g'risidagi tugal xulosalarini, qat'iy hukm va zarur tavsiyalarini o'zida ixcham va londa shaklda mujassam etgan mukammal janadir. O'zbek xalq maqollari odatda el orasida maqol, naql, masal, matal, zarbulmasal, hikmat, foyda, hikmatli so'z, tanbeh, otalar so'zi, mashoyixlar so'zi, donolar yoki donishmandlar so'zi, oqinlar so'zi atamalari bilan ma'lum va mashhurdir. Ko'p hollarda ilmiy adabiyotlarda maqol atamasi qo'llaniladi.

Maqollarda so'z qimmati alohida yorqin ifodalananadi. Chunki maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so'z qo'shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo'ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bor

bo'lib, hajm, shakl, yaratilish maqsadiga ko'ra mushtarak hisoblanadi. Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi. Jumladan, arablarda "qavlun" –gap, so'z ma'nosini ifodalasa, tojiklarning "zarbulmasal" atamalarida misol keltirish, turklardagi "ota so'zi"da esa ajdodlar fikrini eslash m'nosi yetakchi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham "sav" atamasi otalar so'zini eslash tarzida keltirilgan<sup>1</sup>. Maqollar qaysi tilda qanday atalmasin, doimo unda xalq donishmandligi, tajribasi va milliyligi aks etgan bo'ladi. Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folkloarning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish eta oladigan bunday badiiyat qatrалari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisolari bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o'zi va o'zligi to'la namoyon bo'lganidir<sup>2</sup>. Maqollarning ishlatilish doirasi juda keng bo'lib, ulardan jonli so'zlashuv, o'zaro nutqiy munosabatlar, tarixiy, badiiy va ilmiy asarlar hamda siyosiy-publisistik adabiyotlarda doimiy ravishda foydalanimilib kelinadi. Maqollar xalq donoligi va donishmandligini o'zida aks ettiradigan nodir namunalar hisoblanib, badiiy adabiyotning faol va keng tarqalgan mustaqil janridir. Maqollarni xalqona odob-axloq qoidalari ham deymiz. Maqollar o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janr hisoblanadi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lмаган xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun ham turli xalqlar og'zaki ijodida mazmun va shakl jihatdan bir-biriga yaqin hamda hamohang maqollar ko'p uchraydi. Chunki har bir xalq hayoti va tarixida juda ko'p o'xshashliklar, umumiyliliklar mavjud<sup>3</sup>. Boshqacha qilib aytganda, maqollar xalq milliy xarakteri va hayotiy tajribasini o'zida aks ettiradi. O'zbek tilida o'zbek xalqining mehnatsevarligini ifodalaydigan maqollar juda serma'no va serobdir. Bu maqollarni strukturasiga ko'ra bir qismli, ikki qismli va uch qismli maqollarga tasniflashga urindik. Mehnatsevarlik konseptini ifodalaydigan bir qismli maqollarga quyidagi maqollarni misol qilishimiz mumkin: 1)Mehnat, mehnatning tagi – rohat .Inson doimo mehnat qilishi zarur. Mehnat qilib topilgan non rohat bilan yeylimadi. Mehnatning orqasidan inson doimo rohat-farog'atda yashaydi;

2) Odamni ish tanitadi. Kishilar o'zlarining sidqidildan qilgan tinimsiz mehnati tufayli el orasida obro' topadi va hurmatga sazovor bo'ladilar. Bu o'rinda "ish" leksemasi bajarilgan ishning natijasi sifatida qaralmoqda;

3) Xazina g'oyibdan emas, mehnatdan. Bu dunyoda hech narsaga o'z-o'zidan erishib bo'lmasligi, biror ishda muvaffaqiyat qozonish va omadga erishish uchun faqatgina inson o'z mehnatiga ishonishi va sabr-bardosh bilan mehnat qilmog'i zarurligi uqtirilmoqda. Bu maqolda "xazina" leksemasi mehnat tufayli erishiladigan yutuq, daromad, boylik ma'nosini anglatgan;

4) Gap bilan osh pishmas. Bu maqolni ko'chma ma'noda qo'llash mumkin. Chunki ba'zi insonlar biror narsa haqida ko'pdan-ko'p gapirishadi-yu, ammo o'sha ishni sira bajarishmaydi va bu maqol xalq orasida shu kabi insonlarga tanbeh berish ma'nosida qo'llangan.

<sup>1</sup> Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent.:Mumtoz so'z.2010, -64b.

<sup>2</sup> Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – T.:Sharq, 2005,–508 b.

<sup>3</sup> Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. –T.: O'qituvchi, 1990, –303b.

5)Terga botgan – zarga botar. Bu maqolda ter to‘kib mehnat qilgan inson o‘ziga to‘q yashaydi, cho‘ntagida puli bo‘ladi va mehnati evaziga mo‘maygina daromadga ega bo‘ladi deya insonlarni mehnat qilishga chorlov bor.

Ikki qismli maqollarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

1)Mehnat yerda qolmas, Oltin – yo‘lda. Bu maqolda qilingan mehnat, chekilgan zahmat hech qachon izsiz ketmasligi, albatta qandaydir natija olib kelishi aytimoqda va “oltin” leksemasini ishlatishdan maqsad inson mehnati oltinga tenglashtirilmoqda;

2)Yomg‘ir bilan yer ko‘karar, Mehnat bilan – el. Bu maqolda qiyoslash, o‘xshatish badiiy vositalari qo‘llangan bo‘lib, maqol mazmuni yanada chuqurroq anglanishi va asosiy urg‘u mehnatga qaratilishi maqsad qilingan. Elning yashnashi, gurkirab, rivoj topishi uchun mehnat qilishning qanchalik zarur ekanligi “yomg‘ir” leksemasini mehnatga qiyoslash orqali ko‘rsatib berilgan;

3)Daryo suvin bahor toshirar, Odam qadrin mehnat oshirar.Bu maqolda qiyoslash, o‘xshatish badiiy vositalaridan foydalanilgan. Odamni daryoga, mehnatni esa bahorga mengzash orqali qo‘sh qiyoslash hodisasi yuz bergen va insonning qadr-qimmati uning mehnatiga bog‘liqligi uqtirilgan;

4)Ishchan tilagi – tong ota qolsa, Erinchak tilagi – kun bota qolsa. Bu maqolda “ishchan” va “erinchak” sifat leksemalari qo‘llangan bo‘lib,ular otlashib kelmoqda, ya’ni ishchan tilagi emas,ishchan odam tilagi deb tushunishimiz,erinchak tilagi deb emas, erinchak kishi tilagi deyilganini anglab olishimiz mumkin.Bu maqolda zidlash badiiy vositasi qo‘llangan.

5)Mehnat qancha og‘ir bo‘lsa, Keti shuncha shirin bo‘lar.Bu maqolda inson qanchalik qiynalib,azob chekib mehnat qilsa,uning natijasi shunchalik ko‘proq va yaxshiroq bo‘lishi aytimoqda va maqol mazmunini oshirish uchun qancha, shuncha daraja-miqdor ravishidan foydalanilgan.

Uch qismli maqollarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

Yer – ona, Suv – ota, Mehnat – boylik. Bu maqolda zamin va tuproqni onaga, obihayotni esa otaga qiyoslangan hamda yerga ishlov berish, dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanish esa katta daromad manbayiga erishishga olib kelishi uqtirilgan.

Xulosa qilib, shuni aytishimiz mumkinki , maqollar xalq donishmandligining nodir va noyob namunalari hisoblanadi. Ayniqsa, mehnatsevarlikni ifodalagan o‘zbek xalq maqollarining serobligi va sermazmunligi, ularning tag zamirida xalqimizning naqadar mehnatsevar va ishchan ekanligiga va mehnat bilan topilgan rizq-nasibaning nechog‘lik qadrlanishiga ishora qiluvchi ulkan ma’no borligiga amin bo‘lamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent.:Mumtoz so‘z.2010, –64b.
2. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – T.:Sharq, 2005,– 508 b.
3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi, 1990, –303b.
4. O‘zbek xalq maqollari, 2- tom T.: Fan. 1987. – 370b. 77. O‘zbek xalq maqollari, 1-tom T.: Fan . 1987. – 365b.

## PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUN,2024

5. Turaeva, U. (2021). Comparative study of uzbek and english legal terms legal linguistics: historical foundations, basic concepts and aspects. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.6 Philological sciences).